



Chirchiq davlat pedagogika universiteti

rektori G. I. Murodov

2026 yil

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasi

NIZOMI

Jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini zamon talabalari darajasida rivojlantirishni amalga oshirish, talabalarni darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini sport-sog'lomlashtirishga jalb etish, jamoa bo'lib harakat qilish, g'alabaga intilish ishtiyoqlarini kamol toptirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va samaradorligini oshirish, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, talaba yoshlar o'rtasida muntazam sport tadbirlari hamda musobaqalarini o'tkazish orqali talaba yoshlar orasidan eng iqtidorlarini saralab olish, yoshlar o'rtasida ommaviy sportni targ'ib qilish.

I. ASOSIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasini tashkil qilish, o'tkazishning barcha tashkiliy-texnik, moliyaviy masalalarni o'z vaqtida hal qilish uchun tashkiliy qo'mita tuziladi.
2. Tashkiliy qo'mita:

- "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasida bellashiladigan shartlarni aniqlaydi va ularning belgilangan muddatlarda o'tkazilib borilishini ta'minlaydi;

- "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasining barcha shartlarini o'tkazish mobaynida xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydi;

- musobaqalarning ochilish va yopilish marosimlari ssenariysini tasdiqlaydi;

- musobaqa medallari, diplomlar, faxriy yoriqlar, shakllarini tasdiqlaydi;

3. "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasi jamoa birinchiliklari bo'yicha o'tkaziladi.

4. "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasining barcha shartlarida qatnashuvchi barcha sportchilar maxsus sport kiyimlari (FORMA) da bo'lishlari;

- o'z raqiblariga va hakamlarga nisbatan hurmatda bo'lishlari,

- halol va adolat tamoyillari asosida kurash olib borishlari,

- musobaqani o'tkazish madaniyatining buzilishiga yo'l qo'ymasliklari talab etiladi.

5. Shartlarda yo'l qo'yilgan xatolar uchun jarima soniyasi 5 soniyadan 10 soniyagacha qo'shiladi.

II. MAQSAD VA VAZIFALAR

Musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- talabalarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga doimiy ravishda jalb etish;
- talabalarning jamoa bo'lib, bir-birini tushinib harakatlanishga o'rgatish.

III. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASIGA RAHBARLIK

Musobaqaga rahbarlikni Chirchiq davlat pedagogika universiteti ma'muriyati, Jismoniy madaniyat fakulteti.

IV. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASINI O'TKAZISH MUDDATI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti sport maydonida 2026-yil 27-mart kuni soat 14:00dan boshlanadi.

Musobaqada ishtirok etayotgan jamoalar belgilangan vaqtda chiqishlari shart.

V. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASI QATNASHCHILARI

"Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasida Chirchiq shahrida joylashgan Oliy ta'lim muassasasining talabalari hamda Chirchiq shahrida joylashgan hamkor harbiy qism harbiy xizmatchilari bir jamoa bo'lib ishtirok etadi.

"Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasida ishtirok etish jamoalaridan talabnoma berilishi majbur.

Jamoada 10 nafar talaba (o'g'il bola) bo'lishlari kerak.

VI. TIBBIY XIZMAT

Chirchiq shahar tibbiyot maskani xodimlari tomonidan musobaqa nazorat etib boriladi.

VII. HAKAMLIK

Musobaqa bosh hakami Chirchiq davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, dotsent T.S.Achilov.

Musobaqa hakamlari Jismoniy madaniyat nazariyasi kafedrasida o'qituvchilari Sabirov A.A.; Abduraximov S.D.; Anorboyev B.D.lar hakamlik qilishadi. Musobaqa kotibasi Yaqubova M.M.

VIII. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASIDA ISHTIROK ETUVCHI JAMOALARI

Musobaqalar ushbu Nizom musobaqalarini o'tkazish haqidagi alohida qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

Musobaqaning barcha bosqichida faqat talabnomada keltirilgan (talabnoma bir ta'lim muassasasi yoki harbiy qismdan shakllantiriladi) talabalar yoki harbiy xizmatchilar ishtirok etadilar.

Musobaqa ishtirokchilari Oliy ta'lim muassasasi va harbiy qism boshlig'i tomonidan tasdiqlangan talabnoma bilan ishtirok etishi lozim.

Musobaqalarga chetdan (podstavka) yoki boshqa Oliy ta'lim muassasasi talabalari jalb qilingan har bir jamoa musobaqadan chetlashtiriladi. Shuningdek, sportchi yoki jamoaning natijalari bekor qilinadi. Hakamlarga ham ma'lum talablar qo'yiladi. Agarda hakam nohalol hakamlik qilsa va birorta jamoaga yon bosishga yo'l qo'ysa, bu holda hakam hakamlik faoliyatidan diskvalifikatsiya qilinadi. harbiy-sport musobaqasining qatnashchilari va murabbiylar musobaqa jarayonida yoki jamoa o'rtasida tartib qoidalarini buzsa, ularga ham tashkiliy qo'mita tomonidan jarima sanksiyalari qo'llaniladi.

Ishtirokchilarning harbiy-sport musobaqasining ochilish va yopilish marosimlarida to'liq sport formasida qatnashishlariga Oliy ta'lim muassasasi va harbiy qismlarning xodimi mas'uldir.

"Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasi ishtirokchilari ro'yxatini ilovada belgilagan shaklda tasdiqlaydi. Ushbu ro'yxat o'rnatilgan tartibda Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi. Ro'yxatda sportchi-ishtirokchi, sport jamoalari rahbarlari va mas'ullari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi shart (**Talabnoma 1-ilovada**)

IX. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASINI G'OLIBLARI, SOVRINDORLARINI MUKOFOTLASH

G'olib jamoalar hamda "Polvonlar bahsi" harbiy-sport musobaqasini o'tkazishda faollik ko'rsatgan xodimlar va hakamlar Tashkiliy qo'mita tomonidan diplom, medallar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

X. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASINING SHARTLARI

Jamoa tarkibi - 10 nafar (1 nafar zaxira ishtirokchi ruxsat etiladi) ishtirokchi qatnashadi. 3 ta bo'lim 13ta shartdan iborat.

1-bo'lim. Jismoniy tayyorgarlik estafetasi:

1 shart – “Kim tezkor”. Bu shartda jamoadan 1 nafar ishtirokchi 100 metr masofaga yuguradi va jamoaning ikkinchi ishtirokchisiga qo'l beradi.

2 shart – “Balonni ag'dar” Bu shartda jamoadan 1 nafar ishtirokchi (2-ishtirokchi) belgilangan joydagi transport balonini qo'llari yordamida ag'darib belgilangan joygacha olib boradi va kengi ishtirokchiga qo'l beradi.

3 shart – “Toshni ko'tar” Bu shartni bajarishda, 1 nafar ishtirokchi (3-ishtirokchi) qatnashadi, belgilangan joyda turgan 2 ta 16 kg toshni qo'llari yordamida ko'taradi va masofani yugurib bosib o'tadi, toshlarni belgilangan joyga qo'yib keyingi shartda turgan ishtirokchiga qo'l beradi.

4-shart “Tarakancha yurish”. Bu shartda ikkita ishtirokchi qatnashadi (4-5-ishtirokchi) ya'ni ikki qo'lda yurish, bunda bir ishtirokchi ikkinchi ishtirokchini oyog'ini ushlagan va boshqa ishtirokchi qo'lini yerga qo'ygan holatda oldinga qarab harakatlanadi va belgilangan masofaning yarmiga borganda ishtirokchilar joyini almashadi, masofa tugaganda undan keyingi turgan ishtirokchiga qo'l beradi.

5- shart “Kim kuchli”. Bu shartda bir ishtirokchi qatnashadi. Avtomobilni arqonga bog'liq holda tortish uni belgilangan masofaga olib boradi va o'sha yerda finish chizig'idan o'tadi.

Jismoniy tayyorgarlik estafetasini bajarayotganda har bir shartni aniq xatolarsiz bajarish kerak. Jumladan belgilangan bayroqchalarni to'g'ri aylanib o'tish kerak, shartlarni oxirigacha bajarish kerak, keyingi ishtirokchiga qo'l bermasdan turib, keyingi ishtirokchi davom etish kerak emas.

2-bo'lim. Fuqaro muxofazasi estafetasi:

1 shart – “Zaharlangan hududni tark et”. Gaz niqobi yordamida” 1-ishtirokchi 100m masofani bosib o'tib, undan keyin turgan ishtirokchiga qo'l beradi.

2 shart –“Zaharlangan hududda odamlar” Bu shartda nasilka yordamida zaharlangan askarni belgilangan manzilga eltish kerak bo'ladi. Bu shartni 2 nafar ishtirokchi va 1 nafar zaharlangan ishtirokchi qatnashadi. Ya'ni ikki ishtirokchi gaz niqobi kiygan holatda 1 nafar zaharlangan ishtirokchi turgan hududga yuguradi va yaradorga gaz niqobini kiydirib belgilangan manzilga eltishi lozim bo'ladi. Manzilga yetib borgach undan keyingi ishtirokchiga qo'l beradi.

3 shart – “Yaradorga yordam ber” Bu shartda 3 nafar ishtirokchi qatnashadi. Ikki nafar ishtirokchi yarador ishtirokchi joylashgan hududga yuguradi va to'rtqo'l usuli yordamida yaradorni ko'tarib belgilangan finishga borishi kerak bo'ladi.

Fuqaro muxofazasi estafetasini bajarayotganda har bir shartni aniq xatolarsiz bajarish kerak. Jumladan belgilangan bayroqchalarni to'g'ri aylanib o'tish kerak, shartlarni oxirigacha bajarish kerak, keying ishtirokchiga qo'l bermasdan turib, keying ishtirokchi davom etish kerak emas.

3-Bo'lim. Harbiy tayyorgarlik estafetasi:

1 shart – “13 normativni bajar” bunda 1 nafar ishtirokchi qatnashadi. Start chizig'idan yugurib chiqadi va avtomat quroli turgan nuqtaga boradi hamda 1-ishtirokchi qurolni qismlarga ajratadi va keyingi nuqtadagi 2-ishtirokchiga qo'l beradi.

2-shart “14 normativni bajar” bunda (1 nafar) 2-ishtirokchi keyingi nuqtaga yuguradi va qismlarga ajratilgan avtomatni yig'adi va yugiradi, keyingi nuqtadagi 3-ishtirokchiga qo'l beradi.

3 shart. “O'qdonni to'ldir” bu shartda 3-ishtirokchi (1 nafar) o'qdon bilan belgilangan hududga yuguradi va o'qdonni o'quv patronlari bilan tuldiradi va o'qdonni gilofiga solib keyingi nuqtadagi 4-ishtirokchiga qo'l beradi.

4 shart. “Nishonga aniq tushir”. Bu shartda 4 ishtirokchi granata otish maydoniga yugiradi hamda yotgan holda granatani belgilangan joyga otib tushirish kerak bo'ladi. Shartni bajarib o'rnidan turadi va keyingi nuqtadagi 5-ishtirokchiga qo'l beradi. Bunda granatalarni

uloqtirishda 15 metr masofada turgan 5 metrli kvadratga aniq tushirish kerak. 3 dona granata otishga ruxsat beriladi, ishtirokchi 1-urinishda granatani kvadratga tushira olsa keyingi urinishlarni bajarmasdan shartni davom ettiradi. Agar 3ta urinishda ham nishonga tushira olmasa ham shartni davom ettiradi, lekin jamoaga jarima sekundari qo'llaniladi

5 shart. "Darts ustasi". Bu shartda jamoaning 6-ishtirokchisi yugirib darts joylashgan hududga etib keladi va nayzalarni olib otishni boshlaydi (Jami 3ta nayza otadi). Otib bo'lgandan so'ng finishga yuguradi. Bu shartda dartsda jamoa qancha achko to'plasa shuncha miqdorida ballari umumiy vaqtni kamaytirish orqali hisoblanadi (Agar jamoa Harbiy tayyorgarlik estafetasini 2 minut 22 sekunda bajarsa, dartsda 18 ball to'plasa, umumiy hisobdan 18 sekund olib tashlanadi va 2 minut 4 sekund yoziladi). Nayzalar sanchilmaganda ballar hisobga olinmaydi, umumiy vaqt o'zgarmaaydi.

Harbiy tayyorgarlik estafetasini bajarayotganda har bir shartni aniq xatolarsiz bajarish kerak. Jumladan belgilangan bayroqchalarni to'g'ri aylanib o'tish kerak, shartlarni oxirigacha bajarish kerak, keying ishtirokchiga qo'l bermasdan turib, keying ishtirokchi davom etish kerak emas.

"Hammasi vaqtga hisoblanadi"

XI. "POLVONLAR BAHSI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASINI O'TKAZISH VA G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI

Sport musobaqalarining barcha shartlarini jamoalar ketma-ketlikda bajaradi. Musobaqaning bir nafar hakami jamoalar 1 shartni bajarishni boshlaganda sekundomerni vaqtga qo'yadi va oxirgi shartni bajarib bo'lganda to'xtatadi. Yordamchi hakamlar musobaqa shartlar bajariladigan nuqtalarda nazorat olib borishadi. Jamoalarning vaqt ko'rsatkichlari talabnomaga yozib boriladi. Hamda o'rinlar jamoalarning eng kam vaqtiga qarab aniqlanadi. Jamoalar shartlarni bajarish vaqtida xatoliklarga yo'l qo'ysa, xatoning katta va kichikligiga qarab umumiy vaqtga 5-10 sekund jarima vaqtlari qo'shiladi, agar jamoada ishtirokchilar soni kam bo'lsa ruxsat etilmaydi. Shartlarni bajarish vaqtida birorta shart bajarilmasdan qolib ketsa ham natija hisobga olinmaydi.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar

bo'yicha birinchi prorektor



S.B.Qorayev

“Tasdiqlayman”

rektori

“ ” _____ 2026 yil

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan “Polvonlar
bahsi” harbiy-sport musobaqasida ishtirok etish uchun

_____ jamosidan

TALABNOMA

| № | F.I.Sh. | Tug'ilgan yili | Yo'nalishi | Shifokor xulosasi |
|----|---------|----------------|------------|-------------------|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |
| 5 | | | | |
| 7 | | | | |
| 8 | | | | |
| 9 | | | | |
| 10 | | | | |
| 11 | | | | |

Yoshlar ittifoqi yetakchisi _____

Jamoa murabbiyi: _____

Shifokor: _____